

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "TARBIYA" KONSEPTINING FRAZEOLOGIK IFODALANISHI: KOGNITIV TAHLIL

Karimova Muslimaxon Mirzohid qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

karimovam535@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461043>

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'zbek va ingliz tillaridagi "tarbiya" konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda axloqiy tarbiya bilan bog'liq iboralar tanlanib, ularning ma'no ko'lamini, qo'llanish doiralari va ekvivalentlari ikki til misolida tahlil qilindi. Har bir frazeologizmning ingliz tilidagi muqobillari, ularning qo'llanish misollari hamda semantik yaqinligi asosida qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu frazeologik birliklarning madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va aks ettirishdagi roli ham alohida qayd etildi. Maqolada keltirilgan tahlillar orqali har ikki xalqning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya tushunchasining tillardagi ifodalanish xususiyatlari kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, kognitiv tahlil, o'zbek va ingliz tili qiyoslanishi, axloqiy tarbiya, lisoniy-madaniy xususiyatlar, frazeologik ekvivalentlik, tarbiya iboralar, lingvokulturologiya, milliy qadriyatlar.

Tarbiya tushunchasi har ikki xalq kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo'lganligi boyisidan tildagi barqaror, turg'un birikmalar fonida ham o'z aksini topadi. Quyida ulardan ayrimlarini tahlil asnosida ko'rib chiqamiz.

Ko'zini ochmoq - hayotni tushunishga, anglashga o'rgatmoq. Shuning uchun ham ularning ko'zini ochish kerak. Yoshlik chog'laridanoq bilim olishsin – zamon talabi shu. Ch.Aytmatov "Asrga tatigulik kun".

Bu iboraning ham ingliz tilida bir necha muqobillari mavjud. Eng ko'p uchraydigan variant *open one's eyes* bo'lib, u bevosita ko'zni ochish ma'nosidan tashqari, majoziy ma'noda haqiqatni ko'rish, tushunishni ifodalaydi. Shuningdek, *wake up to something* iborasi ham tez-tez qo'llaniladi va biror narsani tushunib yetish, anglab yetish ma'nosini beradi. Masalan, *The experience opened his eyes to the reality* (Bu tajriba uning haqiqatga ko'zini ochdi) yoki *After many mistakes, he finally saw the light* (Ko'p xatolardan so'ng, u oxiri haqiqatni tushundi).

Og'ziga qarab gapirmoq - mulohaza bilan so'zlash, odob saqlash. Og'ziga qarab gapirmoq iborasi o'zbek tilida keng qo'llaniladigan, so'zlovchining o'z nutqini nazorat qilishi, mulohaza bilan gapirishi ma'nosini anglatuvchi ibora hisoblanadi. - «Turkiston»ning 36-sonida «Muxbirlarimizdan» bittasi bir narsani yozibdirkim, o'qub ko'rib nax muxbirning og'zini yorib yuborg'um keldi. Axir, uying kuygur, sag'al *og'zingga qarab gapir*-da: —

«Isroflik to'y...» «Samarqandda o'rtoq Qurbi o'g'ullarini kestirdi, uch-to'rt kun to'y berdi, bir-ikki milliard pul ketdi... To'yg'a isrof qilg'an aqchasiyu! «Ko'mak» uyushmasiga berganda falon bo'lardi...» A.Qodiriy, *Og'zingga Qarab gapir* (1922).

Bu ibora ingliz tilida ham o'z ekvivalentlariga ega bo'lib, ular *watch your mouth, mind your language, think before you speak* va *hold your tongue* kabi iboralar orqali ifodalanadi. *Watch your mouth when speaking to elders!* (Kattalar bilan gaplashganda og'zingga qarab gapir!), *"He never thinks before he speaks, that's why he often gets into trouble."*(U hech qachon o'ylab gapirmaydi, shuning uchun tez-tez muammolarga duch keladi).

Ko'z - quloq bo'lmoq - o'zbek tilida keng qo'llaniladigan, biror kishiga yoki narsaga qarab turish, nazorat qilish va g'amxo'rlik qilish ma'nolarini anglatuvchi ibora hisoblanadi. *Vaqt kelib birortasi kasal bo'lib qolsa yoki otpuskaga chiqqudek bo'lsa, temir yo'l ko'rsatkichlariga ham ko'z-quloq bo'lib turardi. Ch.Aytmatov, Asrga tatigulik kun.*

Bu ibora ingliz tilida ham bir qancha muqobillarga ega. Eng ko'p uchraydigan va ma'no jihatidan eng yaqin variantlar *keep an eye on, look after, watch over va take care of*. Masalan, *Keep an eye on my bag while I'm gone* (Men yo'g'imda sumkamga ko'z-quloq bo'lib tur) yoki *"Could you look after my kids for an hour?"* (Bolalarimga bir soat ko'z-quloq bo'lib tura olasizmi?)

Adabini yemoq - qilmishiga yarasha jazo olmoq. *Bo'ldi, yaxshilar, shuncha ta'zirini yedi, endi tavba qilgandir. A. Muhiddin, Riyokor.*

Ingliz tilida ma'no jihatidan eng yaqini *get what one deserves* hisoblanadi. Bundan tashqari, *get one's comeuppance* iborasi ham tez-tez qo'llanilib, u ham bevosita jazosini olish ma'nosini beradi. Shuningdek, *learn one's lesson* va *pay the price* iboralari ham shu ma'noda ishlatiladi. Bu iboralarning qo'llanilishini quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *He finally got what he deserved* (U oxiri adabini yedi) yoki *After getting fired, he learned his lesson* (Ishtan haydalib, adabini yedi). Har ikkala tilda ham bu iboralar ko'pincha salbiy xatti-harakatlar oqibatida olingan jazo yoki saboqni tasvirlashda ishlatiladi va inson xulq-atvorining natijalarini ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Andisha qilmoq - uyalib, odob bilan ish qilmoq.

Uzmagil behuda gul, bog'bondin andisha qil,

Ori-ori gul uzarsan, xoridin andisha qil.

Kimki keldi bu chamanga, to gul uzmay qo'ymadi,

Lek har vaqt gul uzarsan, xalq xushini pesha qil. Is'hoqxon Ibrat

Andisha qilmoq iborasi ingliz tilida *be considerate, have scruples, think twice*, yoki *have reservations about* kabi iboralar bilan ifodalanishi mumkin. Agar axloqiy me'yorlardan chiqishdan tortinish ma'nosida ishlatilsa, *He has scruples about lying to his friends* (U do'stlariga yolg'on gapirishdan andisha qiladi) deb ifodalash mumkin. Shuningdek, katta qaror qabul qilishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish ma'nosida *think twice* ishlatiladi, masalan, *You should think twice before making such a decision* (Bunday qaror qabul qilishdan oldin andisha qilishing kerak).

So'zidan qaytmas. - gapida turadigan, qat'iyatli. Mahmud deputatni so'zdan qaytmas, mard, oqil odam sifatida qabul qilib, unga xolisanillo yordam bermoqchi edi. *Tohir Malik «Shaytanat 1-kitob» 1989'*

So'zdan qaytmas iborasining ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan va ma'nosi jihatidan eng yaqin varianti *a man/woman of their word* hisoblanadi. Bu ibora bergan va'dasiga sodiq, aytgan so'zida turadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, *true to one's word, keep/stand by one's word* kabi iboralar ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, *John is a man of his word - if he promises something, he always delivers* (Jon so'zidan qaytmaydigan odam - agar biror narsani va'da qilsa, albatta bajaradi), *She's true to her word and always follows through on her commitments* (U so'zining ustidan chiqadi va har doim majburiyatlarini bajaradi), *You can trust him completely - he always stands by his word* (Unga to'liq ishonishingiz mumkin - u har doim so'zining ustidan chiqadi).

Bag'r(i) keng - mehr-iltifoti ortiq darajada.

*Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot! A.Oripov*

Bag'ri keng iborasining ingliz tilida eng ko'p qo'llaniladigan va ma'nosi jihatidan eng yaqin varianti *big-hearted* hisoblanadi. Shuningdek, ochiq ko'ngilli, bag'ri kenglikni ifodalovchi *open-hearted*, mehribon, bag'ri kenglikni bildiruvchi *warm-hearted*, saxiy, bag'ri kenglikni anglatuvchi *large-hearted* va bag'ri kengligi uchun ishlatiladigan *have a heart of gold* kabi iboralar ham mavjud. Masalan, *Despite their differences, he remained open-hearted towards everyone* (Farqlarga qaramay, u hamma uchun bag'ri keng bo'lib qolaverdi), *Her warm-hearted nature makes everyone feel welcome* (Uning bag'ri kengligi hamma o'zini qulay his qilishiga sabab bo'ladi), *He has a heart of gold - always ready to help those in need* (U bag'ri keng inson - doimo muhtojlarga yordam berishga tayyor).

Bag'ri tosh - bemehr, iltifoti yo'q. *Buncha sovuq, bag'ritosh Qizni qaydan yaratdim? O'zimni o'tga otdim. Men nimaga yarayman? Yurtga qanday qarayman? H.Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor.*

Bag'ri tosh iborasining ingliz tilida eng ko'p qo'llaniladigan va ma'nosi jihatidan eng yaqin varianti *hard-hearted* hisoblanadi. Shuningdek, tosh yuraklikni ifodalovchi *stone-hearted*, sovuqqon, bag'ri toshlikni bildiruvchi *cold-hearted*, toshday qattiq qalblilikni anglatuvchi *have a heart of stone* va rahmsiz, bag'ri toshlikni ifodalovchi "heartless" kabi iboralar ham mavjud. Masalan, *How can you be so cold-hearted towards your own family?* (Qanday qilib o'z oilangga nisbatan shunchalik bag'ring tosh bo'lishi mumkin?), *His stone-hearted behavior shocked everyone* (Uning bag'ri toshligi hammani hayratda qoldirdi), *She has a heart of stone - never shows any emotion* (U bag'ri tosh - hech qachon hech qanday his-tuyg'u ko'rsatmaydi).

Beti qalin/qattiq uncha-muncha gap ta'sir qilmaydigan, so'z o'tmaydigan. *Betimning qalini – jonimning huzuri. Maqol*

Beti qalin iborasining ingliz tilida eng ko'p qo'llaniladigan va ma'nosi jihatidan yaqin varianti *thick-skinned* hisoblanadi. Shuningdek, britaniya ingliz tilida ko'p ishlatiladigan *have a brass neck*, uyatsiz, beti qalinlikni bildiruvchi *have a brass face*, yuzi qora, beti qalinlikni anglatuvchi *have a nerve* va yuz-ko'zi yo'qlikni ifodalovchi *brazen-faced* kabi iboralar ham mavjud. Masalan, *He has a brass neck to ask for more money* (Uning yana pul so'rashga beti qalin), *How thick-skinned can you be to behave like that?* (Shunday xatti-harakat qilishga qanchalik beting qalin/qattiq bo'lishi mumkin?).

Bir qop yong'oqday shaldir-shuldur - bor gapni ochiq ko'ngillilik, xushchaqchaqlik bilan to'kib soladigan. *Mirzakarimboyning qizi Nurinisoning tabiatida yengillik bilan makr ustun edi. Uni sinamagan ba'zi ayollar, yengilligini ko'rib: «Bir qop yong'oqday shaldir-shuldur, quvnoq qiz ekan» desalar-da, lekin Nurinisoni yaqindan taniganlar u bilan har vaqt juda ehtiyot bo'lib muomala qilar edilar. Oybek."Qutlug' qon"*

Bir qop yong'oqday shaldir-shuldur iborasining (ochiq ko'ngilli, xushchaqchaq ma'nosida) ingliz tilida eng ko'p qo'llaniladigan varianti *open book* hisoblanadi. Shuningdek, his-tuyg'ularini ochiq bildiruvchi *wear one's heart on one's sleeve*, erkin, ochiq ko'ngillilikni anglatuvchi *free spirit*, davraning joni, xushchaqchaqlikni ifodalovchi *life of the party* va ochiq ko'ngilli, to'g'riso'zlikni bildiruvchi *heart on the table* kabi iboralar ham mavjud. Masalan, *She's an open book - always sharing her thoughts and feelings* (U bir qop yong'oqday shaldir-shuldur, doim o'y-fikrlarini baham ko'radi).

Frazeologik birliklar milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ular nutqqa obrazlilik, ifodalilik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Tilda uzoq vaqt davomida shakllanib, avloddan-avlodga meros sifatida o'tib kelayotgan bu birliklar milliy til xazinasining eng qimmatli qatlamlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ko'rilganidek, ayanan "tarbiya" konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning har ikki tildagi ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Shuningdek, ta'kidlash joizki, ayrim o'rinlarda farqli jihatlar ko'zga tashlansa ayrimlarida o'xshash jihatlar mavjud. Shubhasiz, lingvomadaniy jihatdan rang-baranglilik yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukurova F.X. Ingliz Va O'zbek Tillaridagi Frazeologik Birliklarning Etimologik O'ziga Xosliklari.
2. Rahmatillayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-jild (forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2009. – 283.b
3. The Macmillan English Dictionary. – Malaysia: Macmillan Publisher Limited, 2007. – 1739 p.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология.—М.:»академия», 2001.-с.208.
5. Маматов А.Э. Ҳозирги Замон Ўзбек Адабий Тилида Лексик Фразеологик Норма Муаммолари. – Тошкент: 1991.-Б.218.
6. Yo'ldoshev B. Frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari. – Samarqand: SamDU, 2013.
7. Йўлдошев Б. Ўзбек Фразеологияси Ва Фразеологиясининг Шаклланиши Ҳамда Тараққиёти. – Самарқанд, 2011.-114 Б .